

SHOLI NAVLARI DONINING TEKNOLOGIK SIFAT
KO'RSATKICHLARIGA SUG'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI

**ВЛИЯНИЕ РЕЖИМОВ ОРОШЕНИЯ НА ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ
ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА СОРТОВ РИСА**

**INFLUENCE OF IRRIGATION REGIMES ON TECHNOLOGICAL
INDICATORS OF RICE VARIETIES QUALITY**

Xamroqulov Adaxamjon G'ulomjonovich, assistent, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.. E-mail:

adahamjonhamroqulov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlar sharoitida sholining "Iskandar" hamda "Guljahan" navlarining maqbul sug'orish tartiblarini belgilashning donning texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash borasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: sug'orish me'yori, sug'orish tartibi, pol, tashlama, och tusli bo'z tuproq, qobiqliligi, shishasimonligi, sug'orish usullari, guruchning butunligi.

Аннотация. В статье представлены результаты исследования по определению влияния определения оптимальных способов орошения сортов риса «Искандар» и «Гулжакан» на технологические показатели качества зерна в легких сероземах Андикансской области.

Ключевые слова: норма орошения, способ орошения, чек, сброс, серозем светлосерый, ракушечник, стекловидный, способы орошения, целостность риса.

Abstract. The article presents the results of a study to determine the influence of determining the optimal methods of irrigation of rice varieties

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

“Iskandar” and “Gulzhakhan” on technological indicators of grain quality in light gray soils of the Andijan region

Key words: irrigation rate, irrigation method, check, discharge, light gray sierozem, shell rock, glassy soil, irrigation methods, rice integrity.

Kirish. Sholi dunyodagi eng muhim oziq-ovqat ekinlaridan biri bo‘lib, yalpi hosil va ekin maydoni bo‘yicha bug‘doydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Biroq, oziq-ovqat sifatida inson iste’moli nuqtai nazardan guruch birinchi o‘rinda turadi. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarilgan barcha guruchning 95% to‘g‘ridan-to‘g‘ri oziq-ovqat uchun ishlatiladi, bug‘doyning esa atigi 75% ishlatiladi. Shunday bo‘lsada sholi ekinini yetishtirish biologik omillar va ekologik sharoitlarga bog‘liq. Bugungi kunda agrar sohada suv tanqisligi muammosi kuzatilayotganini hisobga olib, yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik ekinlari hosilini oshirish hamda sifatini yaxshilashda sug‘orish usuli va tartiblarini to‘g‘ri belgilash bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borishga alohida e’tibor berilmoqda. Iqlimning o‘zgarishi suv yuzalaridan suvning bug‘lanishini, o‘simpliklar transpirasiyasi va sug‘orish me’yorlarini ortishi tufayli suvni ko‘proq sarflanishiga olib kelmoqda. Shuning uchun suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Andijon viloyatini och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida olib borilgan tadqiqotga asoslanib sholichilikda qishloq ho‘jaligini aniq yuritish tizimini rivojlantirish maqsadida kuzgi bug‘doydan keyin takroriy ekin sifatida ekiladigan «Iskandar», «Guljahon» navlarini ko‘chat usulida yetishtirishda maqbul sug‘orish tartiblarini o‘simpliklar o‘sishi, rivojlanishi, biometrik ko‘rsatkichlari, hosildorlik va don sifatiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot uslublari. Ilmiy tadqiqotlarda dala tajribalarni joylashtirish, hisob-kitoblar, kuzatishlar «Qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasining uslubiy qo‘llanmasi», «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» (PSUEAITI) asosida amalga oshirilgan. Guruchning shishasimonligi GOST 10987–76, guruch chiqish miqdori va butun guruch chiqish miqdori GOST

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ISO 6646–2013 bo'yicha aniqlangan. Sholi o'simligi barg sathini hisoblash Vishnu M. Bhan va H.K.Pande (IRRI) uslubida, iqtisodiy ko'rsatkichlar V.N.Polojiy uslubida, matematik–statistik tahlillar Microsoft Exsel dasturlari yordamida B.A.Dospexov uslubi bo'yicha hisoblangan.

ТАЖРИБА ТИЗИМИ

№	Навлар	Вариантлар
1.	«Искандар»	Назорат анъанавий усул
2.		Сув полга тўлдирилади ташламага чиқмайди
3.		Сув полга тўлдирилади ташламага 50 фоиз сув чиқади
4.		Полга 10–15 см қалинликда сув 9 кун ушлаб турилади 6 кун сув очилмайди
5.		Полга 10–15 см қалинликда сув 9 кун ушлаб турилади 3 кун сув очилмайди
1.	«Гулжаҳон»	Назорат анъанавий усул
2.		Сув полга тўлдирилади ташламага чиқмайди
3.		Сув полга тўлдирилади ташламага 50 фоиз сув чиқади
4.		Полга 10–15 см қалинликда сув 9 кун ушлаб турилади 6 кун сув очилмайди.
5.		Полга 10–15 см қалинликда сув 9 кун ушлаб турилади 3 кун сув очилмайди.

Tadqiqot natijalari. Andijon viloyati sharoitida kuzgi bug'doydan keyin takroriy ko'chat usulida sholi yetishtirishda sholi sug'orishning eng maqbul sug'orish tartibini aniqlash va sholidan yuqori hosil olishda sug'orish tartibini sholi navlari donining texnologik sifat ko'rsatkichlari ta'sirini o'rganish uchun olib borilgan ilmiy izlanishlarga ko'ra quyidagi natjalarga erishilgan: «Guljahon» navida sug'orish tartibining an'anaviy usuli qo'llanilgan nazorat variantimizda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sholini umumiylar guruch chiqishi 66,9%, guruchning butun chiqishi 87,7 %, donning shishasimonligi, 93,6% donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 18,1%, ni tashkil qilganligi aniqlangan. Suv polga to‘ldiriladi tashlamaga chiqmaydigan ikkinchi variantimizda sholini umumiylar guruch chiqishi 66,1 %, guruchning butun chiqishi 88,2 %, donning shishasimonligi, 92,7 % donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 17,9 %, ni tashkil qilganligi kuzatildi. Sholi sug‘orishning polga 10–15 sm qalinlikda suv 9 kun mobaynida ushlab turilib, so‘ngra 6 kun suv ochilmaydigan uchinchi variantda sholini umumiylar guruch chiqishi 67,1 %, guruchning butun chiqishi 88,5%, donning shishasimonligi, 94,1% donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 18,2 %, ni tashkil qilganligi aniqlangan. Polga 10–15 sm qalinlikda suv 9 kun mobaynida ushlab turilib, so‘ngra 6 kun suv ochilmaydigan to‘rtinchi variantimizda sholini umumiylar guruch chiqishi 66,5%, guruchning butun chiqishi 87,8%, donning shishasimonligi, 88,9 % donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 16,0%, ni tashkil qilganligi aniqlangan. Polga 10–15 sm qalinlikda suv 9 kun ushlab turiladi 3 kun suv ochilmaydigan beshinchi varianda esa bu ko‘rsatkich variantimizda sholini umumiylar guruch chiqishi 67,5%, guruchning butun chiqishi 88,8%, donning shishasimonligi 94,9% donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 17,2% ni tashkil qilganligi kuzatildi.

Sholining o‘rtapishar «Iskandar» navida sug‘orish tartibining an‘anaviy usuli qo‘llanilgan nazorat variantimizda sholini umumiylar guruch chiqishi 70,8%, guruchning butun chiqishi 90,6%, donning shishasimonligi, 92,6% donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 17,3%, ni tashkil qilganligi aniqlangan. Suv polga to‘ldiriladi tashlamaga chiqmaydigan ikkinchi variantimizda sholini umumiylar guruch chiqishi 70,1%, guruchning butun chiqishi 90,5%, donning shishasimonligi, 91,4% donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 17,7%, ni tashkil qilganligi kuzatildi. Sholi sug‘orishning polga 10–15 sm qalinlikda suv 9 kun ushlab turiladi 6 kun suv ochilmaydigan uchinchi variantda sholini umumiylar guruch chiqishi 71,0%, guruchning butun chiqishi 92,8%, donning shishasimonligi, 91,7% donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 18,0%, ni tashkil qilganligi aniqlangan. Polga 10–15 sm qalinlikda suv 9 kun ushlab turiladi 6 kun

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

suv ochilmaydigan to‘rtinchi variantimizda sholini umumiy guruch chiqishi 70,2%, guruchninng butun chiqishi 90,1%, donning shishasimonligi 91,4% donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 17,6%, ni tashkil qilganligi aniqlangan

. Polga 10–15 sm qalinlikda suv 9 kun mobaynida ushlab turilib, so‘ngra 3 kun suv ochilmaydigan beshinchi varianda esa bu ko‘rsatkich variantimizda sholini umumiy guruch chiqishi 71,4%, guruchninng butun chiqishi 93,2%, donning shishasimonligi 92,9% donning qobiq chiqishi (qobiqliligi) 17,1%, ni tashkil qilganligi kuzatildi.

1-jadval.

Sug‘orish tartiblarining sholi navlari donining texnologik sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri (2021–2023y)

№	Variantlar	Guljahon			
		Umumi guruch ni, %	Butun chiqishi,	Shishasim %	Qobiqli
1	Nazorat an’anaviy usul	70,8	90,6	92,9	17,3
2	Suv polga to‘ldiriladi naga chiqmaydi	70,1	90,5	91,4	17,7
3	Suv polga to‘ldiriladi naga 50 foiz suv chiqadi	71,0	92,8	91,7	18,0
4	Polga 10–15 sm kda suv 9 kun ushlab i 6 kun suv ochilmaydi.	70,2	90,1	91,4	17,6
5	Polga 10–15 sm kda suv 9 kun ushlab i 3 kun suv ochilmaydi	71,4	93,2	92,9	17,1
Iskandar					
1	Nazorat an’anaviy usul	66.9	87.7	93.6	18.1
2	Suv polga to‘ldiriladi	67,1	88,2	92,7	17,9

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

	naga chiqmaydi				
3	Suv polga to‘ldiriladi naga 50 foiz suv chiqadi	66,1	88,3	94,1	18,2
4	Polga 10–15 sm kda suv 9 kun ushlab i 6 kun suv ochilmaydi.	66,5	87,8	88,9	16,0
5	Polga 10–15 sm kda suv 9 kun ushlab i 3 kun suv ochilmaydi	67,5	88,4	94,8	17,2

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Guljahon va Iskandar navlarida, polga 10–15 sm qalinlikda suv 9 kun mobaynida ushlab turilib, so‘ngra 3 kun suv ochilmaydigan variantda sug‘orish tartibining an‘anaviy usuli qo‘llanilgan nazorat variantiga nisbatan donning yaltiroqligi, umumiy va butun guruch chiqishi yuqori bo‘lganligi aniqlangan..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 fevraldagisi PQ-4973-son «Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 dekabrdagi 986-son “Sholichilikni barqaror rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. // Москва: Колос. 1985. С. 350-423
4. Urazmetov Q.K. Sholichilik: Qishloq xo‘jaligi oliv o‘quv yurtlari uchun darslik //Toshkent 2021.76-b.
5. Sattarov.M.A, Ergashev.M.A, Otamirzaev.N.G‘, Qalandarov.B.I, Xayitov.M. O‘zbekistonda sholi yetishtirishda suvdan tejab foydalanish bo‘yicha tavsiyanoma. Toshkent. 2019. 3–8–b..
6. Abdullaev A., M.Sattorov va boshqalar Sholi ekish bo‘yicha tavsiyalar. 2014 .B.8–17. 7. Djumanov. Z. N va boshqalar. O‘zbekistonda sholi yetishtirish bo‘yicha ko‘rsatma. Toshkent. M–1998. B.7–9.